

TO‘QIMACHILIK SANOATIDA ISHLAB CHIQRISH RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING TA’SIRI

Xushvaqtoev Shuhrat Abduraufovich

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
“Yoshlar bilan ishlash ma’naviyat
va ma’rifat” bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya

Mazkur maqolada to‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarish raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning ta’siri tahlil qilindi. Tadqiqotda Sanoat 4.0 elementlari, jumladan sun’iy intellekt, IoT va raqamli ishlab chiqarish tizimlarining ishlab chiqarish samaradorligi va qo‘shilgan qiymatga ta’siri baholandi. O‘zbekiston to‘qimachilik tarmog‘ining 2024-yildagi statistik ko‘rsatkichlari asosida empirik natijalar umumlashtirildi. Tahlil natijalari innovatsion texnologiyalar operatsion samaradorlikni oshirgani, xom ashyo isrofini kamaytirgani va mahsulot sifatini yaxshilaganini ko‘rsatdi. Raqamli transformatsiya eksport raqobatbardoshligini kuchaytiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Tadqiqot yakunida tarmoqni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: innovatsion texnologiyalar, to‘qimachilik sanoati, raqobatbardoshlik, Sanoat 4.0, sun’iy intellekt, IoT, O‘zbekiston

Аннотация

В статье проанализировано влияние инновационных технологий на повышение конкурентоспособности производства в текстильной промышленности. Оценено воздействие элементов Industry 4.0, включая искусственный интеллект, IoT и цифровые производственные системы, на эффективность производства и добавленную стоимость. На основе статистических данных текстильной отрасли Узбекистана за 2024 год обобщены эмпирические результаты. Анализ показал, что инновационные технологии повысили операционную эффективность, сократили потери сырья и улучшили качество продукции. Цифровая трансформация выступила важным фактором усиления экспортной конкурентоспособности. По итогам исследования сформулированы научно обоснованные выводы для развития отрасли.

Ключевые слова: инновационные технологии, текстильная промышленность, конкурентоспособность, Industry 4.0, искусственный интеллект, IoT, Узбекистан

Abstract

The article analyzed the impact of innovative technologies on increasing production competitiveness in the textile industry. The study evaluated the effects of Industry 4.0 elements, including artificial intelligence, IoT, and digital manufacturing systems, on production efficiency and value added. Empirical results were summarized based on statistical data from Uzbekistan’s textile sector in 2024. The findings showed that innovative technologies improved operational efficiency, reduced raw material waste, and enhanced product quality. Digital transformation emerged as a key factor in

strengthening export competitiveness. The study produced evidence-based conclusions for further development of the industry.

Keywords: innovative technologies, textile industry, competitiveness, Industry 4.0, artificial intelligence, IoT, Uzbekistan

KIRISH

To‘qimachilik sanoati global iqtisodiyotning eng dinamik tarmoqlaridan biri sifatida Sanoat 4.0 davrida sezilarli texnologik o‘zgarishlar bilan yuzlashmoqda. Sun‘iy intellekt, narsalar interneti (IoT), katta ma‘lumotlar tahlili va aqlli ishlab chiqarish tizimlari to‘qimachilik korxonalarining biznes-modellarini, qiymat zanjirlarini va raqobat afzalliklarini yangidan shakllantirmoqda [1]. Sanoat 4.0 paradigmasi mahsulot sifatini, ishlab chiqarish unumdorligini va resurs samaradorligini bir vaqtda oshirish imkonini beradi va korxonalariga global bozorda barqaror pozitsiyani egallash uchun zarur bo‘lgan moslashuvchanlikni ta‘minlaydi [2].

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati so‘nggi yillarda ishlab chiqarish quvvatlari, tashqi savdo geografiyasi va texnologik darajasi bo‘yicha sezilarli yutuqlarga erishdi. 2024-yilda mamlakatda 89,5 trln so‘mlik to‘qimachilik mahsulotlari va 33,8 trln so‘mlik kiyim-kechak ishlab chiqarildi; jami 123,3 trln so‘mga teng bo‘lgan bu hajm qayta ishlash sanoatining 16,4 foizini tashkil qildi [3]. Eksport qiymati 2,87 mlrd dollarni tashkil etib, mamlakat umumiy eksportining 10,6 foizini ta‘minladi [4]. Bunday natijalar tarmoqning xalqaro raqobatbardoshlik darajasini o‘sib borayotganidan dalolat beradi va innovatsion modernizatsiya uchun mustahkam zamin yaratadi.

Innovatsion texnologiyalarning qo‘shilgan qiymatga, ishlab chiqarish unumdorligiga va xalqaro pozitsiyaga ta‘siri zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Tarmoq raqobatbardoshligini ta‘minlovchi omillar tarkibida raqamli infratuzilma, malakali kadrlar, klaster modellari va xalqaro standartlarga muvofiqlik birinchi o‘rinda turadi [5]. Maqolaning maqsadi - to‘qimachilik sanoatida raqobatbardoshlikni oshirishda innovatsion texnologiyalarning ta‘sirini nazariy va amaliy jihatdan yoritish, milliy iqtisodiyot kontekstida tegishli yondashuvlarni ishlab chiqishdir. Tadqiqot natijalari nazariy umumlashtirishlar va amaliy tavsiyalar shaklida taqdim etilib, sektorning kelgusi rivojlanish strategiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat 4.0 konsepsiyasi to‘qimachilik tarmog‘ida raqamli transformatsiyaning tizimli asosi sifatida qaralmoqda. Aqlli zavodlar, IoT-sensorelari va sun‘iy intellekt asosidagi sifat nazorati real vaqtda samaradorlikni ta‘minlashi, mahsulot sifatining barqaror oshishiga olib kelishi nazariy adabiyotlarda keng yoritilgan [1]. Sanoat 4.0 ning to‘qimachilikka tatbiqi mahsulotning yakuniy iste‘molchiga yetib borishiga qadar bo‘lgan barcha bosqichlarda raqamli izchillikni shakllantiradi va ta‘minot zanjirini shaffoflashtirib, operatsion ko‘rinishni keskin yaxshilaydi [2].

Empirik tadqiqotlar Lean tamoyillari raqamli texnologiyalar bilan birlashtirilganda ishlab chiqarish samaradorligi 79 foizdan 86 foizgacha o‘shishini

tasdiqladi [6]. Ushbu yondashuv aqlli infratuzilma orqali operatorlarga real vaqtdagi qaror qabul qilish imkoniyatini berib, sozlash vaqtlarini sezilarli qisqartiradi va operatsion agillikni ta'minlaydi. Qaror qabul qilish jarayonlarini ma'lumotlar bilan boyitish to'qimachilik korxonalarida resurs sarfini va inson xatosi ehtimolini izchil pasaytiradi [6].

Sun'iy intellekt to'qimachilikning konstruktiv loyihalashtirish, mato dizayni va sifat nazorati yo'nalishlarida muhim natijalarga olib kelmoqda. SXD startapi misolida SI-asosli isroflarsiz (zero-waste) loyihalashtirish yondashuvi sherik kompaniyalarda mato isrofini 46 foizgacha kamaytirgan; mato xarajatining yuqoriligini hisobga olganda sezilarli iqtisodiy samara berishi qayd etilgan [7]. Sun'iy intellekt usullari nuqsonlarni aniqlash, talabni prognozlashtirish va ta'minot zanjirini optimallashtirishda an'anaviy yondashuvlardan ustunligini namoyon qilib, korxonalar uchun jadal moslashuv imkoniyatlarini yaratmoqda [8].

Texnologik innovatsiyalar ekologik barqarorlik va inson resurslari samaradorligi bo'yicha ham ijobiy ta'sir qoldiradi. Smartex misolida AI-asosli aqlli ishlab chiqarish tizimlari mato nuqsonlarini real vaqtda aniqlash orqali xom ashyo iste'molini va energiya sarfini sezilarli kamaytirgan [9]. Sanoat 4.0 elementlarini kichik va o'rta korxonalariga keng tatbiq etish moliyalashtirish va malakali mutaxassislar yetishmasligi tufayli sekin kechmoqda, biroq strategik investitsiyalar va davlat yordami orqali bu cheklovlarni bartaraf etish imkoniyati mavjud [10]. O'zbekiston to'qimachilik sanoatiga oid mahalliy tadqiqotlar texnologik modernizatsiya, klasterlashtirish va ekologik standartlarga rioya qilish raqobatbardoshlikning markaziy omillari ekanligini ko'rsatdi [5]. Eksport diversifikatsiyasi va xalqaro brendlar bilan integratsiyalashuv uchun raqamli yetilganlik darajasi va sertifikatlash tizimlari muhim ahamiyatga ega [11].

METODOLOGIYA

Tadqiqotda sistemali yondashuv, qiyosiy tahlil va statistik baholash usullari uyg'unlashtirildi. Birlamchi ma'lumotlar manbalari sifatida xalqaro ilmiy jurnallarning indekslangan nashrlari va peer-reviewed maqolalari tanlandi. Ikkilamchi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining ochiq ma'lumotlar bazasidan jamlandi [3]. Tashqi savdo aylanmasi va tarmoq dinamikasi bo'yicha qo'shimcha ko'rsatkichlar maxsus statistik hisobotlardan olindi [4]. Mamlakat to'qimachilik sektorining institutsional o'zgarishlariga oid tahliliy materiallar Sanoat va innovatsion taraqqiyot vazirligi rasmiy nashrlaridan keltirildi [12].

Tahliliy metodologiya quyidagi izchil bosqichlarni qamrab oldi: birinchidan, global to'qimachilik sanoatida innovatsion texnologiyalarning ta'sirini nazariy modellashtirish; ikkinchidan, O'zbekiston tarmoq ko'rsatkichlarini xalqaro qiyoslashtirish orqali tarmoqning real holatini baholash; uchinchidan, muvaffaqiyatli amaliyot misollarini tipologik klassifikatsiyalash; to'rtinchidan, modernizatsiya yo'nalishlari bo'yicha asosli xulosalar shakllantirish va ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Sifat nazorati, xom ashyo isrofini kamaytirish va ishlab chiqarish unumdorligini oshirish bo'yicha xalqaro tadqiqotlardan miqdoriy ko'rsatkichlar to'plandi va ular

O‘zbekiston sharoitiga moslashtirildi [6]. SI-asosli yondashuvlarning ta’siri amaliyotdagi konkret holatlar misolida o‘rganildi [7]. Tadqiqot natijalari nazariy umumlashtirish va amaliy tavsiyalar shaklida tizimlashtirilib, tarmoq raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha aniq yo‘nalishlar belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining 2024-yilgi ko‘rsatkichlari tarmoqning izchil o‘sish bosqichida ekanligini namoyon etadi. Mamlakat bo‘yicha 89,5 trln so‘mlik to‘qimachilik mahsulotlari va 33,8 trln so‘mlik kiyim-kechak ishlab chiqarildi; yig‘ma hisobda 123,3 trln so‘mga teng bo‘lgan bu hajm qayta ishlash sanoatining 16,4 foizini tashkil etdi [3]. Tarmoqning eksport potentsiali 2,87 mlrd dollarga yetdi va u mamlakat umumiy eksportining 10,6 foizini ta‘minladi [13]. Eksport tarkibida ip-gazlama 43,2 foiz, tayyor to‘qimachilik mahsulotlari 39,2 foiz ulushga ega bo‘ldi; bunday tarkib qo‘shilgan qiymati yuqori mahsulotlar tomon strategik siljishni ko‘rsatadi [4].

To‘qimachilik sektoridagi raqobat afzalligi katta o‘lchovda innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish darajasi bilan belgilanadi. Xalqaro brendlar bilan ishlovchi yetakchi mahalliy korxonalar 273 ming tonna mahsulot ishlab chiqarib, qiymati 12,9 trln so‘mga teng bo‘ldi. Ushbu korxonalardan 40,1 ming tonna tayyor mahsulot 435,4 mln dollarlik eksportga jo‘natildi va u umumiy ishlab chiqarishning 42 foizini tashkil qildi [12]. Xalqaro bozorda yuqori raqobatbardoshlikning aniq dalili sifatida talqin etiladigan bunday ko‘rsatkichlar 37 500 dan ortiq ish o‘rni yaratilishi orqali mintaqaviy ijtimoiy barqarorlikka ham ijobiy hissa qo‘shdi [12].

Korxonalar texnologik modernizatsiya orqali qo‘shilgan qiymat zanjirida yuqoriroq pozitsiyalarga chiqmoqda. ITMF 2024 anjumanida O‘zbekistondagi 130 dan ortiq paxta-to‘qimachilik klasterlari sifat nazorati va innovatsion yondashuvlarni o‘zlashtirayotgani ko‘rsatib o‘tildi [14]. Mahalliy korxonalar Climate Risk Platform, DNA-asosli traceability tizimi va HUMOUN robotlashgan dronlari kabi yangi texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etmoqda; bu yechimlar mahsulot kelib chiqishini kuzatish, xavf-xatarni boshqarish va kimyoviy ishlovni avtomatlashtirish bo‘yicha sezilarli imkoniyatlarni ochmoqda [15]. Innovatsion texnologiyalarning ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga ta’sirini quyidagi jadvalda tizimlashtirilgan ko‘rinishda taqdim etamiz.

1-jadvalda taqdim etilgan ko‘rsatkichlar innovatsion texnologiyalarning ishlab chiqarish samaradorligiga keng qamrovli ta’sirini namoyon etadi. Lean tamoyillari raqamli platformalar bilan birlashtirilganda samaradorlik etti foizdan ortiqqa o‘sib, korxonalariga operatsion agillikni ta‘minlamoqda [6]. Sun‘iy intellekt yordamida loyihalashtirish jarayonida xom ashyo iste‘molini sezilarli kamaytirish - global brendlar uchun ham, mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun ham strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yechim sanaladi [7]. Aqlli ishlab chiqarish tizimlari mato nuqsonlarini real vaqtda aniqlash orqali sifat ko‘rsatkichlarini va resurs samaradorligini bir vaqtda yaxshilab, korxonaning xalqaro standartlar bilan muvofiqligini ta‘minlaydi [9].

1-jadval.
Innovatsion texnologiyalarning to‘qimachilik ishlab chiqarishida samaradorlikka ta’siri va asosiy ko‘rsatkichlari¹

Texnologiya yo‘nalishi	Asosiy ta’sir	Miqdoriy natija	Manba
Lean tamoyillari va raqamli ishlab chiqarish integratsiyasi	Operatsion samaradorlikni oshirish, sozlash vaqtini qisqartirish	Unumdorlik 79% dan 86% gacha o‘sgan	[6]
SI-asosli zero-waste loyihalashtirish (SXD platformasi)	Mato isrofini kamaytirish va xarajat tejash	Mato sarfining 46% gacha kamayishi	[7]
IoT-sensorlar va sun’iy intellekt asosidagi sifat nazorati	Real vaqtda nuqsonlarni aniqlash, prognozli profilaktika	Avtomatlashtirilgan monitoring tizimi	[2]
Smartex SI-asosli aqlli ishlab chiqarish modeli	Mato nuqsonlarini aniqlash va energiya iste’molini boshqarish	Chiqindi va energiya sarfining sezilarli kamayishi	[9]
Klaster modeli (130 dan ortiq paxta-to‘qimachilik klasteri)	Vertikal integratsiya, eksport va sertifikatlash	12,9 trln so‘m yetakchi korxonalar mahsuloti	[14]
Raqamli izlanish (DNA-asosli traceability, climate risk platforma)	Mahsulot kelib chiqishini kuzatish va xavf-xatarni boshqarish	Mahalliy startaplar tomonidan amaliyotga tatbiq etilgan	[15]

O‘zbekiston tarmog‘i 2025-yilda 20 ta yangi ishlab chiqarish liniyasini ishga tushirish va investitsiya dasturini kengaytirish orqali eksport hajmini 2028-yilga 7 mlrd dollargacha oshirish maqsadini ko‘zlamoda [12]. Bu salohiyatni ro‘yobga chiqarish uchun raqamli texnologiyalarning keng tatbiqi, malakali kadrlarni tayyorlash va xalqaro standartlarga moslashtirish - uchta o‘zaro bog‘liq strategik yo‘nalish hisoblanadi [11]. Sanoat 4.0 elementlarini joriy etish bo‘yicha amaldagi loyihalar tarmoqning xalqaro raqobat ko‘rsatkichlarini izchil yaxshilab, innovatsion modernizatsiya orqali milliy iqtisodiyotning sanoat tarkibida sifat o‘zgarishlarini ta’minlamoqda [2].

XULOSA VA TAKLIFLAR

To‘qimachilik sanoatida innovatsion texnologiyalarni izchil tatbiq etish ishlab chiqarish raqobatbardoshligini oshirishning eng samarali vositasi bo‘lib qolmoqda. Sun’iy intellekt, IoT, raqamli egizak va aqlli ishlab chiqarish modellari operatsion samaradorlikni 79 foizdan 86 foizgacha oshirish, xom ashyo isrofini 46 foizgacha kamaytirish va sifat nazoratini avtomatlashtirish kabi konkret natijalarga olib kelishi xalqaro tajriba bilan tasdiqlangan [6]. SI-asosli yondashuvlar mahsulot loyihalashtirish, talab prognozi va ta’minot zanjirini optimallashtirish bo‘yicha keng imkoniyatlarni ochib, korxonalar samaradorligini izchil yaxshilamoqda [8].

O‘zbekiston to‘qimachilik sektori 2024-yilda erishgan 2,87 mlrd dollarlik eksport hajmi va 123,3 trln so‘mlik ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari tarmoqning ijobiy o‘shish dinamikasini namoyon etadi [13]. 130 dan ortiq paxta-to‘qimachilik klasterining

¹ Muallif tomonidan jadvalda keltirilgan ilmiy nashrlar va statistik manbalar asosida tuzilgan.

shakllanishi qo‘shilgan qiymat zanjirida vertikal integratsiyani kuchaytirib, mahalliy korxonalarining xalqaro brendlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlash imkoniyatini kengaytirdi [14]. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar shakllantirildi.

Birinchidan, korxonalariga IoT-asosli sifat nazorati tizimlari va aqlli ishlab chiqarish platformalarini joriy etish qisqa muddatda operatsion samaradorlikni keskin oshirishning eng samarali yo‘nalishi sanaladi [2]. Ikkinchidan, SI-asosli loyihalashtirish va talab prognozlash modullari mato isrofini, inventarizatsiya xarajatlarini sezilarli kamaytirib, korxonaning bozor o‘zgaruvchanligiga moslashuvchanligini oshiradi [7]. Uchinchidan, klaster doirasidagi korxonalar uchun yagona raqamli platforma yaratish ta‘minot zanjirini shaffoflashtirib, eksport potensialini va xalqaro sertifikatlash jarayonlarini tezlashtiradi [5].

Mavjud tendensiyalar O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining global qiymat zanjirida yanada muhim pozitsiyalarni egallashi mumkinligini ko‘rsatadi. Innovatsion texnologiyalarni izchil o‘zlashtirish va inson kapitaliga investitsiyalar - barqaror o‘shishning ikki asosiy ustuni bo‘lib qoladi [9]. Tarmoqning kelgusi rivojlanishi nafaqat texnologik modernizatsiya, balki ekologik standartlar va xalqaro sertifikatlash tizimiga uyg‘unlashish bilan ham bog‘liqdir [15]. Bu yo‘nalishlar birgalikda mamlakat to‘qimachilik sanoatining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini izchil mustahkamlashga, eksport salohiyatini kengaytirishga va milliy iqtisodiyotning barqaror o‘shishiga xizmat qilishi tabiiydir [11].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Textile School. Industry 4.0 in Textiles, 2025. URL: <https://www.textileschool.com/9952/industry-4-0-in-textiles/>
2. IJERT. Impact of Industry 4.0 on Textile Production and Supply Chain, 2024. URL: <https://www.ijert.org/impact-of-industry-40-on-textile-production-and-supply-chain>
3. Textile Expo Uzbekistan. In 2024, textile production in Uzbekistan increased, but exports decreased by 6.7%, 2025. URL: <https://textileexpo.uz/en/news/in-2024-textile-production-in-uzbekistan-increased-but-exports-decreased-by-67>
4. UzDaily. Uzbekistan’s foreign trade turnover reached US\$65.9 billion in 2024, 2025. URL: <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-foreign-trade-turnover-reached-us659-billion-in-2024/>
5. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. An Economic Model for Improving the Competitiveness of the Textile Industry, 2025, vol. 6, no. 4, pp. 1509–1516. URL: <https://cajitmf.casjournal.org/index.php/CAJITMF/article/download/1022/1042/>
6. Sustainability (MDPI). A Data-Driven Approach to Lean and Digital Process Re-Modeling for Sustainable Textile Production, 2025, vol. 17, no. 19, art. 8888. URL: <https://www.mdpi.com/2071-1050/17/19/8888>
7. Specialty Fabrics Review. Artificial intelligence in textile patterns and sizing, 2024. URL: <https://specialtyfabricsreview.com/2024/09/01/artificial-intelligence-in-textile-patterns-and-sizing/>

8. GreyB. Power of Artificial Intelligence in the Textile Industry, 2025. URL: <https://www.greyb.com/blog/artificial-intelligence-in-textile-industry/>
9. Sustainability (MDPI). Innovation Impact in the Textile Industry: From the Toyota Production System to Artificial Intelligence, 2025, vol. 17, no. 3, art. 1170. URL: <https://www.mdpi.com/2071-1050/17/3/1170>
10. Processes (MDPI). Revolutionizing Textile Manufacturing: Sustainable and Profitable Production by Integrating Industry 4.0, 2024, vol. 12, no. 11, art. 2311. URL: <https://www.mdpi.com/2227-9717/12/11/2311>
11. Asia Pacific Journal of Marketing & Management Review. Sequence of Assessing the Competitiveness and Measures to Increase Competitiveness of Uzbek Textile Industry, 2024, vol. 13, no. 2. URL: <https://gejournal.net/index.php/APJMMR/article/view/2334>
12. Government of Uzbekistan, Ministry of Investment, Industry and Trade. Textile Revolution in Uzbekistan, 2025. URL: <https://gov.uz/en/miit/news/view/80910>
13. Daryo. Uzbekistan's textile exports reach \$2.9bn in 2024, making up 10.6% of total trade, 2025. URL: <https://daryo.uz/en/2025/03/04/uzbekistans-textile-exports-reach-29bn-in-2024-making-up-106-of-total-trade>
14. Textile World. ITMF 2024 Conference: Uzbekistan Showcases Modern Textile Investment, 2024. URL: <https://www.textileworld.com/textile-world/features/2024/11/itmf-2024-conference-uzbekistan-showcases-modern-textile-investment/>
15. Uzbekistan Textile and Garment Industry Association. Textile sector - a platform for innovative solutions, 2024. URL: <https://uzts.uz/en/textile-sector-a-platform-for-innovative-solutions/>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**